



IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **62,7 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida **1 145** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **98,3 foizni** tashkil qildi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 428 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 268 ta, sanoat tarmog'ida 145 ta, yashash va ovqatlanishda 84 ta, qurilish tarmog'ida 49 ta, tashish va saqlashda 31 tani tashkil etilgan.



2025- yilning yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning 62,7 foizi (2024- yil yanvar-martida 61,5 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 3 051,6 mlrd. so'mni (32,5 foiz) (faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 763 tani tashkil etdi);



4 271,4 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 98,5 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 924 tani tashkil etdi;



2238,9 mlrd.so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 27,4 foizi) 2024- yilning yanvar-martiga nisbatan 51,5 foizni tashkil etdi;



2500,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 82,0 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 1893 tani tashkil etdi);



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,3 foizga (viloyatning jami avtomobil' transporti yuk aylanmasining 90,0 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 6,6 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 94,1 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 746 tani tashkil etdi);



chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 94,7 foizi yoki 5 451,4 mlrd. so'm, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 25,5 foizi yoki 4 982,7 mlrd. so'mni, tashkil qildi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 9 607 ta




24,2 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 24,0 foizi) 38,7 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 32,8 foizi) ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.soʻm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	4 721,4	98,5
Sanoat	3 051,6	32,5
Qurilish	2 500,9	82,0
Chakana savdo	5 451,4	94,7
Yuk tashish, mln tn.	5,3	88,9
Yoʻlovchi tashish, mln. kishi	18,6	89,8
Ekspart, mln. AQSH doll.	24,2	24,0
Import, mln. AQSH doll.	38,7	32,8

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti
(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik
tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi**
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2025- yil 1- aprel holatida 43 001 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (41 915 ta) 102,6 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning (34,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (21,3 %), sanoat (14,0 %), qurilish (8,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,1 %), tashish va saqlash (2,9 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,9 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

2025- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2025- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (363,8 mlrd. so'm), Mirishkor (270,8 mlrd. so'm), Chiroqchi (226,8 mlrd. so'm), Koson (163,0 mlrd. so'm) va Muborak (154,6 mlrd. so'm), tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (1 538,2 mlrd. so‘m), Shahrisabz (450,7 mlrd. so‘m) shaharlari va Koson (388,6 mlrd. so‘m) va Qamashi (337,5 mlrd. so‘m) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2025- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



2025- yilning yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 62,7 foizni tashkil qilib, 2024- yilning mos davrida 61,5 % foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Ko'kdala tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Chiroqchi (100,0 %), Mirishkor (91,9 %) tumanlari va Shahrisabz shahriga (85,4 %) hamda eng past ulushi Nishon (6,3 %) tumaniga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Mirishkor (92,5 %), Kasbi (87,4 %), Kitob (86,9 %), Qamashi (86,3 %), Koson (84,4 %), Nishon (83,0 %), Dehqonobod (82,4 %), Yakkabog' (80,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.